SPORTCHI TALABALARGA GAP BO‘LAKLARINI INNOVATSION USULLAR ORQALI O‘QITISH

Almatov Gulboy Turdiboyevich.
O‘zDJTSU O‘zbek va chet tillar kafedrasi o‘qituvchisi.
Ataniyazova Maftuna Elmurod qizi.
O‘ZDJTSU KO-51-24 guruhi talabasi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada sportchi talabalarga rus tili grammatikasining muhim bo‘limlaridan biri bo‘lgan gapning bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarini samarali o‘qitish masalalari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va sportga oid leksik materiallardan foydalanish orqali talabalar bilimini oshirish imkoniyatlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: gapning ikkinchi darajali bo‘laklari, sportchi talabalar, innovatsion metodlar, interfaol ta’lim, grammatika o‘qitish metodikasi, pedagogik texnologiyalar, o‘zbek tili, sport leksikasi.

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы эффективного обучения студентов-спортсменов одной из важных тем грамматики русского языка — главным и второстепенным членам предложения. Рассматриваются возможности повышения знаний студентов посредством использования инновационных педагогических технологий, интерактивных методов и лексических материалов, связанных со спортивной тематикой, в современном образовательном процессе.

Ключевые слова: главные и второстепенные члены предложения, студенты-спортсмены, инновационные методы, интерактивное обучение, методика преподавания грамматики, педагогические технологии, русский язык, спортивная лексика.

Bugungi kunda ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida rus tili fanini o‘qitishda talabalarning qiziqishlari va kasbiy yo‘nalishini hisobga olish samarali natijalarni ta’minlaydi. Ma’lumki, sportchi talabalarga grammatika o‘qitishning o‘ziga xos jihatlari mavjud.Chunki sportchi talabalar ko‘p vaqtini mashg‘ulotlar va musobaqalarda o‘tkazadi. Shu sababli dars jarayonini qisqa, samarali va qiziqarli tashkil etish zarur.

Bizningcha, bunda quyidagi omillar o’qituvchi uchun juda muhim:

- o‘quv materialining sodda va tushunarli bo‘lishi;
- sport mavzusiga oid misollarni ko‘proq qo‘llash;
- interfaol metodlardan unumli foydalanish;
- jamoaviy mashg‘ulotlar tashkil etish.

Sportchi talabalarga rus tili darslari orqali gap bo‘laklarini o‘qitishda grammatik birliklarni kontekst asosida o‘rganish muhim hisoblanadi. Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, til o‘rgatishda grammatik hodisalarni nutqiy faoliyat bilan bog‘lab tushuntirish o‘quvchilarning bilimini mustahkamlaydi. Jumladan, **L.V.Shcherba** grammatikani o‘qitishda til birliklarini nutq

jarayonida qo‘llash zarurligini alohida ta’kidlab, grammatik kategoriyalarni real nutqiy vaziyatlar orqali o‘rgatish samarali ekanini ko‘rsatadi[1].

Sport bilan shug‘ullanuvchi talabalar uchun o‘quv jarayonini sport mavzusi bilan bog‘lab tashkil etish ta’lim samaradorligini oshiradi. Chunki sportchi talabalar o‘z faoliyati bilan bog‘liq matnlar va misollar orqali grammatik qoidalarni tezroq o‘zlashtiradilar.

Rus tili grammatikasida gapning ikkinchi darajali bo‘laklari — aniqlovchi, to‘ldiruvchi va hol — gap mazmunini to‘ldirib, uni yanada aniq va mazmunli qiladi. Shu sababli bu mavzuni o‘qitishda zamonaviy metodlardan foydalanish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Rus tilida gapning bo‘laklari **asosiy yoki bosh (главные члены предложения)** va **ikkinchi darajali bo‘laklar (второстепенные члены предложения)** ga bo‘linadi. Bu mavzu rus tilining sintaksis bo‘limida o‘rganiladi va gapning tuzilishini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

Gapning **bosh** bo‘laklari ega va kesim vazifasini bajarsa, ikkinchi darajali bo‘laklar gapning mazmunini kengaytiradi.

1. Gapning bosh **bo‘laklari (Главные члены предложения)**

Gapning **bosh** bo‘laklari **ega va kesimdan** iborat bo‘ladi. Ular gapning grammatik asosini tashkil qiladi.

1. Ega (Подлежащее)

Ega gapda kim yoki nima haqida so‘z borayotganini bildiradi va odatda **ot yoki olmosh** bilan ifodalanadi. **U кто? что?** savollariga javob beradi.

Misollar: Спортсмен победил на соревновании. **Студенты** занимаются спортом. Bu gaplarda **спортсмен, студенты** – ega hisoblanadi.

2. Kesim (Сказуемое)

Kesim ega bildirgan shaxs yoki predmetning **harakati yoki holatini** bildiradi. U ko‘pincha **fe’l** bilan ifodalanadi.

Misollar: Спортсмен **тренируется** каждый день. Команда **выиграла** матч.

Bu gaplarda **тренируется, выиграла** – kesimdir.

2. Gapning ikkinchi darajali bo‘laklari (Второстепенные члены предложения).

Ikkinchi darajali bo‘laklar gapning mazmunini **to‘ldiradi, aniqlaydi va kengaytiradi.** Rus tilida ular uch turga bo‘linadi:

1. To‘ldiruvchi (Дополнение). To‘ldiruvchi harakatning **kimga yoki nimaga qaratilganini** bildiradi. U **косвенные падежи** (egalik kelishiklari) orqali ifodalanadi.

Savollar: кого? чего? кому? чему? кого? что? кем? чем? о ком? о чём?

Misollar: Студенты читают **книгу**. Тренер помогает **спортсменам**. Bu gaplarda **книгу, спортсменам** – to‘ldiruvchi.

2. Aniqlovchi (Определение)

Aniqlovchi predmetning **belgisini yoki xususiyatini** bildiradi.

Savollar: какой? который? чей?

[1] Щерба Л.В. **Преподавание иностранных языков в средней школе. Общие вопросы методики.** – Москва: Просвещение, 1974. – 56–60-betlar.

Misollar:

- **Сильный** спортсмен победил.
- Мы смотрели **интересный** матч.

Bu gaplarda **сильный, интересный** – aniqlovchi.

3. Hol (Обстоятельство)

Hol harakatning **qayerda, qachon, qanday yoki nima sababdan** sodir bo‘lishini bildiradi.

Savollar: где? когда? как? почему? зачем?

Misollar: Спортсмены тренируются **утром**. Команда играет **на стадионе**. Bu gaplarda **утром, на стадионе** – hol.

Sportga oid matnlarni tahlil qilish orqali talabalarga gapning ikkinchi darajali bo‘laklarini topish topshiriqlarini berish hamda ta’lim jarayonida quyidagi zamonaviy innovatsion metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi. Shuningdek, rus tilini o‘qitish metodikasi bo‘yicha tadqiqotlarda interfaol metodlardan foydalanish talabalarning til kompetensiyasini rivojlantirishda muhim vosita ekanligi qayd etiladi. **L.S.Barkhudarov**ning fikricha, grammatika o‘qitish jarayonida kommunikativ mashqlar va dialoglardan foydalanish talabalarni mustaqil fikrlashga va til birliklarini faol qo‘llashga o‘rgatadi [2].

1. “Aqliy hujum” metodi. Bu metod orqali talabalar muayyan mavzu bo‘yicha tezkor fikr bildiradilar.

Masalan, o‘qituvchi quyidagi savolni beradi: “O’z sport yo’nalishingiz haqidagi gaplarda qanday aniqlovchilar ishlatiladi?”

Talabalar turli misollar keltiradilar: tezkor futbolchi, kuchli bokschi, tajribali murabbiy...

2. “Klaster” metodi. Bu metod orqali mavzu bo‘yicha asosiy tushunchalar grafik tarzda ifodalanadi.

Masalan: gapning bosh va ikkinchi darajali bo‘laklari → ega, kesim, aniqlovchi, to‘ldiruvchi, hol. Har biriga sportga oid misollar yoziladi.

3. “Rolli o‘yin” metodi. Talabalar sport jurnalisti, murabbiy yoki sportchi rolida dialog tuzadilar.

Masalan: — Biz kecha stadionda mashq qildik.

— Yangi murabbiy jamoaga yaxshi maslahat berdi.

Keyin gap bo‘laklari tahlil qilinadi.

4.“Insert” texnologiyasi

Talabalar matnni o‘qib, undagi yangi, tushunarsiz va qiyin bo‘lgan ma’lumotlarni belgilar orqali ko’rsatadilar.

Dars jarayonida quyidagi metodlardan foydalanish mumkin: pedagogik kuzatish, taqqoslash metodi, tajriba-sinov darslari, interfaol metodlar.

Tajriba davomida sportchi talabalar bilan maxsus mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. Mashg‘ulotlarda sportga oid matnlar, dialoglar va amaliy topshiriqlardan samarali foydalaniladi.

[2] Бархударов Л.С. **Методика преподавания русского языка. –** Москва: Высшая школа, 1986. – 110–115-бетlar

Tajriba natijalari shuni ko‘rsatadiki, innovatsion metodlardan foydalanilgan darslarda talabalar: grammatik qoidalarni tezroq o‘zlashtirishadi, nutqiy faolligi oshadi, dars jarayonida faol ishtirok etadi.

Sport mavzusiga oid matnlar talabalarda motivatsiyani oshiradi va o‘rganilgan bilimlarni amaliy qo‘llash imkonini beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, sportchi talabalarga rus tili darslarida gapning bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash katta ahamiyatga ega. Ular talabalarga gapning grammatik tuzilishini to‘g‘ri tushunishga yordam beradi.

Ayniqsa, sportchi talabalar uchun sportga oid misollar orqali bu mavzuni tushuntirish o‘quv jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. Grammatik birliklarni amaliy nutq bilan bog‘lab o‘qitish talabalarning til kompetensiyasini rivojlantiradi.

Interfaol metodlar, sportga oid leksik materiallar va amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘quv jarayonini yanada samarali tashkil etishga olib keladi. Bunday yondashuv nafaqat grammatik bilimlarni mustahkamlaydi, balki talabalarning nutqiy kompetensiyasi va muloqot madaniyatini ham rivojlantiradi.

Shu sababli rus tili darslarida zamonaviy metodlardan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Щерба Л.В. Преподавание иностранных языков в средней школе. Общие вопросы методики. – Москва: Просвещение, 1974. – 56–60 - betlar.

2. Бархударов Л.С. Методика преподавания русского языка. – Москва: Высшая школа, 1986. – 110–115 - betlar.

3. Розенталь Д.Э., Голуб И.Б., Теленкова М.А. Современный русский язык. – Москва: Айрис-пресс, 2010. – 448 - bet.

4. Азимов Э.Г., Щукин А.Н. Методика преподавания русского языка как иностранного. – Ташкент: Ўқитувчи, 2009. – 384 - bet.

5. Мирзаев Т.М. Русский язык в узбекской аудитории: методика преподавания. – Ташкент: Фан, 2010. – 256 - bet.